

FORS BADIY NASRI HAQIDA

О ПЕРСИДСКОЙ ПОЭЗИИ

ABOUT PERSIAN POETRY

Nizamova FERUZA ALIMULLAYEVNA,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,

PhD, Senior Lecturer;
Department of Uzbek language and classical oriental
literature,
A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.
f.nizamova@iiiau.uz

DOI: 10.47980/IIAU/2023/1/7

Annotatsiya: Bu maqolada fors adabiyotining nasrini o'rganishga va tahlil qilishga harakat qilingan. Maqolaning maqsadi – IX-XV asr ijodkorlari asarlaridagi mafkuraviy va badiiy usulni o'rganish, shuningdek, davr nasriy asarlarini tahlil qilish orqali fors-tojik adabiyoti tarixidagi o'rnini aniqlashdan iboratdir.

Odatda, fors-tojik klassik adabiyoti haqida gap ketganda, faqat nazm tilga olinadi-yu, nasr esa bir oz e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun qadimgi va o'rta asr fors-tojik adabiyotida nazm nasrdan ustun bo'lgan degan fikrlar ham eshutilib qoladi. Darhaqiqat, fors-tojik klassik adabiyoti, avvalo, o'zining ma'naviy g'oyalarga boy she'riy asarlari bilan jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rinni egalladi. Firdavsiy, Xayyom, Sa'diy, Hofiz asarlari asrlar osha o'zining go'zal tarovatini saqlab kelmoqda. Buning asosiy sababi ularning asarlaridagi nafosat, xalqchilik, insonparvarlik, sharqona fozillik va donishmandlik kabi fazilatlaridir.

IX-XV asr fors-tojik poeziyasi o'zining shakl va mazmuni jihatidagina emas, balki badiiyati nuqtai nazaridan ham eng yuqori darajaga erishgan edi. Shu sababli eronshunos olimlar o'sha davr poetik asarlarini tadqiq etish va ommalashtirishga katta ahamiyat berishgan. Nasriy asarlar taqdiri bir oz o'zgachadir. She'riy asarlar qo'lyozmasi nasriy asarlarga nisbatan bizgacha ko'proq yetib kelgan va saqlangan. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, hozirgi zamon fors nasri fors-tojik klassik adabiyoti an'alarini ko'p jihatdan o'zida mujassamlashtirgan va singdirgan. Shuning uchun, fors adabiyotining g'oyasi – ezgulik va yovuzlik kurashi bugungi fors nasrining ham asosiy mavzusi hisoblanadi. Bu adabiy-badiiy vorislik va o'zaro aloqani mavzu tanlashda yoki munozara, afsona, safarnoma kabi janr shakllaridan foydalanishda ko'rinish mumkin.

IX-XI asrlarda Eron adabiyotida she'riyatning gullab yashnaganligi izoh talab qilmaydi, ammo shu bilan birga, nasr ham davr talabidan orqada qolmaganligini mashhur sharqshunos E.Bertels, S. Braginskiy, Eron olimi va shoiri Malikushshuaro Bahor, Kotibiy, nemis olimi Gyote, tojik olimi Yu.Salimov o'z ilmiy risolalarida qayd etishgan.

Kalit so'zlar: Forsiy adabiyot, nasr, badiiy timsol, shoir, janr, tahlil, asar, til.

Аннотация: В данной статье предпринимается попытка изучения и анализа прозы персидской литературы. Цель статьи - изучить идейно-художественный метод в произведениях персидских писателей IX-XV века, а также определить их место в истории персидско-таджикской литературы путем анализа прозаических произведений данного периода.

Различие между поэзией и прозой всегда было вполне осознаваемым в персидской литературе, при этом почётное место занимала поэзия. Вот почему относительно древней и средневековой персидско-таджикской литературы можно услышать мнение о превосходстве поэзии над прозой. Поэтому персидско-таджикская классическая литература заняла достойное место в сокровищнице мировой культуры благодаря, прежде всего, своим поэтическим произведениям. Произведения Фирдоуси, Хайяма, Саади, Хафиза на протяжении многих веков продолжают привлекать внимание многочисленных поклонников. Основной причиной этого являются достоинства их работ, такие как изящность, близость к народу, гуманизм, и мудрость. Персидско-таджикская поэзия IX-XV вв. достигла своего высочайшего уровня по форме, содержанию и по художественности. По этой причине иранские ученые придавали большое значение исследованию и популяризации поэтических произведений указанного периода. Судьба прозаических же произведений несколько иная. Рукописи поэтических произведений сохранились и дошли до нас в большем количестве по сравнению с прозаическими произведениями. Можно с уверенностью сказать, что современная персидская проза во многих аспектах впитала и внедрила традиции персидско-таджикской классической литературы. Поэтому основная идея персидской литературы, т.е. борьба добра и зла, является главной темой и сегодняшней персидской прозы. Эту литературно-художественную преемственность и взаимосвязь можно увидеть в выборе темы или в использовании жанровых форм. Произведения авторов этого периода отличаются сложностью языка и композиционной техники, оригинальностью и многообразием тем, присутствием персидских архаизмов и, в то же время, большим объемом заимствований из других восточных языков. Необходимо отметить, что известные востоковеды Э. Бертельс, С. Брагинский, иранский ученый и поэт Маликушшуаро Бахар, Котиби, немецкий ученый Гете, таджикский ученый Ю.Салимов утверждали, что проза этого периода также не уступала поэзии указанного периода.

Ключевые слова: Персидская литература, поэтика, образ, поэт, жанр, анализ, произведение, язык.

Abstract: This article studies and analyzes the prose of Persian literature. The purpose of the article is to study the ideological and artistic style in the work of writers of 9-15th centuries, as well as to determine its place in the history of

Persian-Tajik literature by analyzing the prose works of this period.

Usually, when speaking about Persian-Tajik classical literature, only poetry is mentioned, and prose is somewhat forgotten. That is why in the ancient and medieval Persian-Tajik literature one can hear the opinion about the superiority of verse over prose. Indeed, the Persian-Tajik classical literature, first of all, with its poetic works that rich in spiritual ideas, has taken a worthy place in the treasury of world culture. The works of Ferdowsi, Khayyam, Saadi, Hafiz have retained their beautiful freshness over the centuries. The main reason for this is the virtues in their works, such as refinement, nationalism, humanism, oriental virtue and wisdom.

Persian-Tajik poetry of the 9-15th centuries. reached the highest level not only for their form and content, but also in terms of artistry. For this reason, Iranian scholars attached great importance to the study and popularization of the poetic works of that time. The fate of prose works is somewhat different. Manuscripts of poetic works have reached us more than prose works, and have been preserved. It can be said with confidence that modern Persian prose has largely embodied and assimilated the traditions of Persian-Tajik classical literature. Therefore, the idea of Persian literature - the struggle between good and evil - is the main theme of today's Persian prose. This literary-artistic inheritance and interaction can be seen in the choice of the theme or in the use of genre forms such as discussion, legend, travelogue.

The heyday of Iranian literature poetry of the 9th-11th centuries does not require an explanation, but at the same time, well-known orientologists E. Bertels, S. Braginsky, Iranian scientist and poet Malikushshuaro Bahar, Kotibi, German scientist Goethe, Tajik scientist Yu. Salimov noted in their scientific treatises, that the prose did not lag behind the demand of the time.

Key words: Persian literature, prose, artistic symbol, poet, genre, analysis, work, language.

KIRISH

Turkiston sarzaminidagi maktab va madrasalarda Sa'diyning «Guliston», Bedilning «Chor unsur» kabi asarlaridan, Hofizning g'azallaridan o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilganligi barchaga ma'lum. Har bir o'zbek ziyolisi forsiy tilini bilgan va shu tildagi badiiy adabiyotni sevib o'qigan. Chunki o'zbek va fors adabiyotlarida shakl va mazmun, janr xususiyati va boshqa ko'pgina jihatlaridan o'zaro mushtaraklik mavjud. Ushbu adabiyotlar bir sarchashmadan suv ichib, bir quyoshdan nur olgan. Shunisi quvonchliki, eng qiyin paytlarda ham O'zbekistonda fors tili va adabiyotini o'rganish to'xtamadi. Respublikamizda bu sohada mutaxassislar tayyorlanib, qardosh madaniyat va adabiyotni tadqiq etish borasida anchagina ishlar qilinmoqda.

USLUBLAR

Odatda, fors-tojik klassik adabiyoti haqida ran ketganda, faqat nazm tilga olinadi-yu, nasr esa bir oz e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun qadimgi va o'rta asr fors-tojik adabiyotida nazm nasrdan ustun bo'lgan degan fikrlar ham eshutilib qoladi. Darhaqiqat, fors-tojik klassik adabiyoti, avvalo, o'zining ma'naviy g'oyalarga boy she'riy asarlari bilan jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin egalladi. Firdavsiy, Xayyom, Sa'diy, Hofiz asarlari asrlar osha o'zining go'zal tarovatini saqlab kelmoqda (*Шомухамедов III., 2000 :36*). Buning asosiy sababi ularning asarlaridagi nafosat, xalqchilik, insonparvarlik, sharqona fozillik va donishmandlik kabi fazilatlaridir. IX-XV asr fors-tojik poeziyasi o'zining shakl va mazmuni jihatidagina emas, balki badiiyati nuqtai nazaridan ham eng yuqori darajaga erishgan edi. Shu sababli eronshunos olimlar o'sha davr poetik asarlarini tadqiq etish va ommalashtirishga katta ahamiyat berishgan.

NATIJA

Nasriy asarlar taqdiri bir oz o'zgachadir. She'riy asarlar qo'lyozmasi nasriy asarlarga nisbatan bizgacha ko'proq yetib kelgan va saqlangan. Keyingi davrlarda olib borilayotgan ilmiy-taqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, o'sha nasriy asarlarda juda ko'p masallar, afsonalar, hikoyatlar, rivoyatlar, tarixiy latifalar keltirilganki, ularning mazmunlari va obrazlarida xalq kurashi, orzu-umidi, dardi-alamini aks etgan. Tula ishonch bilan aytish mumkinki, hozirgi zamon fors nasri fors-tojik klassik adabiyoti an'analarini ko'p jihatdan o'zida mujassamlantirgan va singdirgan. Shuning uchun, fors adabiyotining g'oyasi - ezgulik va yovuzlik kurashi bugungi fors nasrining ham asosiy mavzusi hisoblanadi. Bu adabiy-badiiy vorislik va o'zaro aloqani mavzu tanlashda yoki munozara, afsona, safarnoma kabi janr shakllaridan foydalanishda ko'rish mumkin.

MUHOKAMA

IX-XI asrlarda Eron adabiyotida she'riyatning gullab yashnaganligi izoh talab qilmaydi, ammo shu bilan birga, nasr ham davr talabidan orqada qolmaganligini mashhur sharqshunos E.Bertels, S. Braginskiy, Eron olimi va shoiri Malikushshuaro Bahor, Kotibiy, nemis olimi Gyote, tojik olimi Yu.Salimov o'z ilmiy risolalarida qayd etishgan. I.S. Braginskiy ilmiy tadqiqotlarida qadimgi va o'rta davr fors nasrini uch guruhga bo'lish mumkin deb hisoblaydi:

1. Epik turdagi badiiy asarlar — nasriy «Shohnoma» va diniy-romantik asarlar (masalan, «Abu-

Muslimnoma»).

2. Didaktik turdagi badiiy asarlar — masallar, rivoyatlar, ramzli hikoyatlar, afsonalar to‘plamlari, «Kalila va Dimna», «Sindbodnoma», Muhammad Avfiyning to‘plamlari, Sa‘diyning «Guliston» asari va Ubayd Zokoniyning satirik asarlari shular jumlasidandir.

3. Mazmunga boy materiallarni o‘z ichiga olgan tarixiy, geografik, adabiyotshunoslik va boshqa turdagi badiiy bo‘lmagan asarlar, masalan, «Chahor maqola», «Siyosatnoma», tarixiy solnomalar, tazkiralar va shunga o‘xshash asarlardir. I.S.Braginskiy garchi bu turdagi kitoblarni badiiy bo‘lmagan asarlar deb hisoblasa-da, aslida ular o‘zining jozibasi bilan haqiqiy badiiy asarlardan u qadar farq qilmaydi, chunki o‘sha davr uslubi shuni taqozo etgan. Eronshunos olimlar islom dini kirib kelishidan oldin ham qadimgi davr fors tili (eramizdan ilgari VI-III asrlar) va o‘rta davr fors tili (eramizning III-II asrlari)da har xil mazmunda nasriy asarlar yozilganligini isbot etishgan. O‘rta Osiyo va Eron sarzamini arablar tomonidan bosib olinganidan so‘ng (VII asr) arab tili va yozuvi shu mintaqalarga joriy etildi. Arablar O‘rta Osiyo va Eron tuprog‘ida yashovchi xalqlarga nisbatan islomlashtirish siyosatini jadal yurgizdilar. Natijada asrlar davomida bu mintaqada yashayotgan xalqlar tomonidan yaratilgan juda katta madaniy boyliklar qisman yuq qilindi. Eron olimi Karim Keshavarziy tarixiy manbalarga tayanib, o‘zining besh jildli «Ming yillik fors nasri» nomli kitobining birinchi jildida quyidagicha yozadi: «125 xijriy (742-743 melodiy) yildan boshlab arab tili va yozuvi Xuroson devonxona va idora ishlarida majburiy joriy etildi. Mamlakat a‘yonlari va devonxona arboblari molu dunyo va mansablarini saqlab qolish maqsadida arab tilini o‘rganishga kirishdilar va bu sohada ko‘pchiliklari arablardan ham o‘tib ketdilar». Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida arab xalifaligining mahalliy xalqlar madaniyatiga munosabati haqida ajoyib hikoyat keltiradi: «Hikoya qilishlaricha, Abdulloh binni Tohir Abbosiylar xalifaligi davrida Xuroson amiri edi. Kunlarning birida Nishopurda unga bir kishi tuhfa sifatida kitob keltirdi. U suradi: - Bu qanaqa kitob? Javob berdi: «Vomih va Uzro» haqida hakimlar shoh Anushirvon sharafiga to‘plagan ajoyib hissadir. Amir Abdulloh aytdilar: “Biz Qur’on va payg‘ambarlar hadisidan boshqa hech qanaqa kitob o‘qimaymiz. Bizga bunaqa kitob darkor emas, bu kitobni otashparastlar yaratgan, biz uni rad etamiz” (*Абу Али Хасан ибн Али Тусий Низомулмулк., 1091:11*). Shunday deb, kitobni suvga oqizishni buyurdi hamda o‘z qo‘l ostidagi sarzaminda Ajam va otashparastlar kitobi bo‘lsa, hammasini olovga yoqishga hukm etdi. Shuning uchun Somoniylar davrigacha bitilgan ajam ash‘orini hech kim ko‘rmadi. Agar ba‘zida (ajam tilida) she‘r yozilsa ham,

biroq (kitob boshida) to‘planmadi». Bu hikoyat o‘sha davr fors adabiyoti haqida ma‘lum tasavvur bera oladi, deb o‘ylaymiz. Biroq bu adabiyotni tagtomiri bilan qo‘porib tashlashga arablarning qurbi yetmadi, chunki yning tomiri nihoyatda kuchli edi. Forsiyzabon ijodkorlar tomonidan yaratilgan adabiy va ilmiy asarlar arab tiliga tarjima qilinib, bizgacha yetib keldi. X asrdan boshlab Movarounnahr va Xuroson yerlarida fors tilida ko‘plab badiiy, ilmiy va diniy nasriy asarlar yaratila boshladi. Firdavsiy «Shohnoma»sining manbalaridan biri bo‘lgan Abu Mansurning «Shohnoma» asari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. XI-XII asrlarda fors tilida Zohiriy Samarqandiyning «Sindbodnoma» sarguzasht asari, Abul-Maoliyning ezgulik va fazilatlar haqidagi «Kalila va Dimna» asari, shoir Nosir Xusravning «Sayohatnoma» asari, shohlarga o‘git sifatida yozilgan Daqiqiyning «Baxtiyornoma» kabi asarlari nasrda bitildi. Keyinchalik esa butun dunyoga mashhur, kichik hikoyatlardan iborat Sa‘diyning «Guliston», Ubayd Zokoniyning «Folnomaye buruj» va «Axloq-ul-ashrof» kabi satirik asarlari yozildi. Jomiy fors adabiyotining go‘zal an‘analarini davom ettirib, o‘zining «Bahoriston» asarini insho etdi. O‘rta asrlarda nasriy asarlar paydo bo‘la boshladi. Sodiq Abdulqosim Sheroziyning «Samak Ayyor», muallifi noma‘lum «Hotam Toy», «Amir Xamza» va «To‘tinoma» shular jumlasidandir. Bu asarlar fors-tojik nasrining ajoyib namunasi sifatida tan olinganligi hamda allaqachon jahon adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egallaganligi ilm ahliga ayon. Bundan tashqari, fors tilida ko‘pgina poetika, falsafa, siyosat, tibbiyot va jug‘rofiyaga oid badiiylardan holi bo‘lmagan qator nasriy asarlar yaratilgan. XVI asrda uzoq davom etgan qonli urushlar natijasida Eronda Safaviylar, O‘rta Osiyoda Shayboniylar hokimiyat tepasiga keldilar. O‘zaro nizoda bo‘lgan bu ikki sulola asrlar davomida iqtisodiy va madaniy aloqalari bir-biri bilan mustahkam bo‘lgan O‘rta Osiyo va Eron xalqlarini ikkiga bo‘lib yubordi. Shu paytdan boshlab Eronda fors adabiyoti, O‘rta Osiyoda tojik adabiyoti, Hindiston va Afgonistonda forsiyzabon adabiyot mustaqil ravishda shakllana boshladi. Bu adabiyotlar uzoq vaqt o‘zaro aloqalarni saqlab qoldi, ammo borgan sari bir-birlaridan uzoqlashib, hap qaysisi o‘ziga xos xususiyat kasb etib, o‘z an‘analariga ega bo‘la bordi. Shuning uchun, biz quyida faqat Erondagi fors adabiyoti haqida fikr yuritamiz. Eronda safaviylar hokimiyatni egallab olganlaridan so‘ng islomning shia mazhabini davlat dini qilib belgiladilar va o‘z siyosatlarini shu asosga qurdilar. Ruhoniylar va safaviylar ijodkorlarni qadimgi madaniy va adabiy an‘analar asosida faqat diniy-ilohiy mavzuda asarlar yozishga undadilar va shu yo‘lda ularni rag‘batlantirdilar. Shuning uchun adabiyotda g‘oyasizlik, shaklbozlik va

taqlidguylik avj oldi. Mafkurani targ'ib etish maqsadida sodda fors tilida ilohiyot, tarix va falsafaga oid qator nasriy asarlar yaratildi. Ko'pgina eronshunoslar Jomiydan keyingi uch asr davomida fors adabiyoti tanazzulga yuz tutdi, fors adabiyotining gullab-yashnash davri tugadi deb hisoblashadi. Hatto, Eron olimlari ham bu davrni «sukut asri» deb atashadi. Bizningcha, bu davr fors adabiyoti o'rta asr davridagi kabi o'rganilmaganligi uchungina shunday fikr tug'dirgan. Sababi, an'ana va tajribaga boy fors adabiyotida uch asr davomida biron ko'zga ko'ringan yozuvchi yoki shoir ijodidan namuna bo'lmasligi aqlga sig'maydi. XVII-XVIII asrlarda Eron tuzumning buhronlarini boshidan kechirmoqda edi. O'zaro janjallar, sulolalar o'rtasidagi nizolar va urushlar to'xtovsiz davom etayotgan bu paytda Yevropa mustamlakachilari (Portugaliya, Gollandiya, keyinchalik Angliya va Rossiya) Eronga ta'sir o'tkazib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustaqil rivojlanishiga to'sqinlik qila boshlagan edi. Mamlakat o'zining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini yo'qotayotgan davrga to'g'ri kelib qoldi. Buni sezgan ilg'or fikrli kishilar XVIII asrning ikkinchi yarmida Eronning qadimgi kuch-qudratini tiklash shiori bilan chiqdilar. Bu g'oya adabiyotda ham o'z aksini topdi. Natijada XIX asrning birinchi yarmida fuqarolik ruhiga to'liq ma'rifatparvarlik harakati va milliy davlat tuzish tashabbusi boshlandi. Eron ziyolilarining maorif va madaniyat sohasida islohotlar o'tkazishni talab qilishi o'z navbatida adabiyot taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. XIX asrning boshlarida Eron hukumati yoshlarni o'qish uchun G'arbiy Yevropa mamlakatlariga jo'natib, u yokdan mutaxassislarni taklif qila boshladi. 1851 yilda esa Tehronda «Dorilfunun» nomini olgan birinchi politexnika tipidagi oliy maktab ochildi. «Dorilfunun»ning mamlakatda ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishdagi ahamiyati katta bo'ldi. Eron bosmaxonalarning paydo bo'lishi (1812 y.) natijasida gazetalar chop etish yulga qo'yildi. 1850 yildan boshlab avval Tehronda, so'ng Tabriz, Isfahon, Sheroz shaharlarida gazetalar muntazam ravishda chika boshladi. Gazetalarning chiqishi adabiyotda yangi janr-publisistikaning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Gazetalarda kichik hikoyalar, ocherklar va felyetonlar chop etilardi. Hullas, gazetaning paydo bo'lishi fors adabiyotida kichik va ixcham janrlarning taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Yozuvchilar o'z asarlarini gazetabop qisqa va ixcham qilish maqsadida boy xalq ogzaki ijodidan va an'anaviy xazil-mutoyibalardan unumli foydalandilar. XIX asrning oxirlarida Eron ma'rifatparvarlari orasida mamlakatda progressiv islohot o'tkazish tarafdorlari ko'paydi. Biroq, ochiq aytish imkoni bo'lmaganligidan gazetalarni chet ellarda chiqarishga majbur bo'ladilar. Masalan, Londonda

«Qonun», Stambulda «Axtar», Kalkuttada «Habul-ul-matin» gazetolari chop etilib, ularda zuravonlikka, o'zboshimchalikka va qoloqlikka qarshi, adolat, qonuniy davlat va taraqqiyot uchun kurashga chaqiruvchi maqolalar e'lon qilindi. Shuni alohida qayd etish lozimki, yangi fors nasri (Yevropa tushunchasi buyicha)ning shakllanishida G'arbiy Yevropa yozuvchilari asarlarining fors tiliga tarjimasi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda Dyumaning «Uch mushketyor», «Graf Monte Kristo» asarlari, Fenelonning «Ulissning o'g'li Telemek sarguzashti», Lesajning «Jil Blaz», Defoning «Robinzon Kruzo», Molyerning komediyalari, Jyul Vernning romanlari, Volterning tarixiy kitoblari fors tilida paydo bo'ldi. Tarjima, asosan, fransuz tilidan «Dorilfunun» talabalari tomonidan amalga oshirildi. 1874 yilda Ozarbayjon adabiyotining asoschisi, buyuk ma'rifatparvar Mirza Fatali Oxundovning asarlari fors tiliga o'girildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari fors badiiy prozasi taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davrda Eron adabiyotida tanqidiy realizmning vujudga kelishida muhim bosqich bo'lgan fosh etuvchi ma'rifatparvarlik yunalishi shakllanayotgan edi. Mirzo Malkumxon Nizom-ud-davlaning (1833-1908 yy.) pyesalari, Zaynal-Obidin (1837-1910 yy.) «Ibrohimbek sarguzashti» publisistik romani, Tolibov nomi bilan mashhur Abdurahim Abu-Tolib Najjorzoda Tabriziyning «Bilimlar to'plami yoki Ahmadning kitobi» nasriy asarlari fikrimiz dalilidir. Zaynal-Obidin romanining birinchi qismi 1888 yilda chet elda chop etiladi. Syujetining o'tkir va keskinligi, voqelikning real aks ettirilishi hamda jamiyatda uchraydigan ijtimoiy illatlarning jur'at va qat'iyat bilan fosh etilishi tufayli kitob Eron o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Romanning ikkinchi qismi 1907 yilda, uchinchi qismi esa 1909 yilda chet elda bosilib chiqdi. Roman qahramoni Ibrohimbek Eron va unga chegaradosh mamlakatlar bo'ylab safar qiladi. Safar davomida u oddiy mehnatkashlarning og'ir-mashaqqatli turmushi, vazirlar, davlat ma'murlari va polisiyachilarning jabr-zulmi, xalqni talashi kabi voqealarning guvohi bo'ladi. Bularning hammasi jonli suhbat, bahs, o'y-fikr shaklida berilib, qahramon ko'rgan-bilganlarini kundalik tarzida yozib boradi. Abdurahim Tolibovning «Bilimlar to'plami yoki Ahmadning kitobi» 1893 yilda Stambulda, asosan ma'rifatparvarlik maqsadida yozildi. Kitobda ota o'zining yetti yoshli ilmga chanqoq o'g'li bilan ilmiy-texnik va ijtimoiy-siyosiy mavzularda suhbat quradi. Ota telefon, telegraf, to'plarning yaratilishi, qog'oz, buyoq, qalamlarning tayyorlanish yusinlari, fizika, ximiya, biologiyani asosiy qoidalarini o'g'liga sodda qilib tushuntiradi. Ota o'g'lining ba'zi savollariga javob berish jarayonida o'quvchida Eron

ijtimoiy hayotiga nisbatan tanqidiy fikr uygʻotadi. Masalan, ota ofiser boʻlish uchun albatta mahsus harbiy bilim olish zarurligini uqtirayotganida oʻgʻli uning soʻzini boʻlib suraydi: «Iye, qiziq-ku, qoʻshnimiz Habibulloxonning oʻgʻli hecham maktabga borgan emas, u qanday qilib polkovnik boʻlib qoldi?!» Ota esa Eronda harbiy unvon meros sifatida olinadi, deb tushuntirishga majbur boʻladi. 1906 yilda A.Tolibovning «Hayot masalalari» asari Tiflisda bosilib chiqdi. Bu asar «Ahmadning kitobi» romanining mantiqiy davomi boʻlib, Ahmad endi ulgʻayib, injenerlik kasbini egallagan. U otasi, tengdoshlari, doʻstlari va raqiblari bilan bahsga kirishadi. Bu asarlarda maʼrifatparvarlik va maqolanavislikka (publisistika) xos oʻrinlar ancha boʻlsa ham, badiiy jihatdan oʻz davri uchun maʼlum ahamiyatga ega edi. A.Tolibovning 1905 yilda Kairda uchinchi asari «Yaxshilarning maslaklari» bosilib chiqdi. U Attorning «Mantiq ut-tayr» dostoni asosida yaratilgan edi. Malkumxon, Marogʻniy va Tolibovning asarlari fors nasri taraqqiyotiga jiddiy turtki berdi, Eron ziyolilarini uygʻotishda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Umuman, Eron maʼrifatparvar nosirlari ikki yunalishda ijod qilishgan. Birinchisi, ancha rivojlangan yoʻnalish boʻlib, uning vakillari Marogʻniy va Tolibovlardir. Ikkinchisi esa, moʻtadil yoʻnalish boʻlib, Malkumxon shu yoʻldan bordi. Eron inqilobi (1905-1911 yy.) birinchi rus inqilobi bilan bir paytda boshlanib, xalqning siyosiy ongini oʻstirdi va mavjud siyosiy tuzumga qaqshatqich zarba berdi: sharqda birinchi boʻlib majlis (parlament) tuzildi. Biroq talvasaga tushgan hukmron kuchlar ingliz va chor Rossiyasi qoʻshinlari bilan til biriktirdilar. Eron inqilobi (1905-1911 yy.) davrida adabiy janrlar taraqqiyoti va badiiy adabiyotni targʻib etishga mahalliy matbuot katta xizmat qildi. Oʻsha davrda maxsus yozuvchilar uyushmasi yuqligidan yozuvchi va shoirlar asosan gazeta va jurnallar atrofida jipslashdilar. Sharqshunos olim V. B. Klyashtorinaning guvohlik berishicha, oʻsha davrda Eronda ikki yuzga yaqin matbuot nashri boʻlgan. Aholisi oʻrtasida «Nasime shimol», «Ozarbayjon», «Chantaye pobaraxne», «Kashkul», «Bahlul», «Irone nuu», «Teotr», «Nohed», «Tufiq», «Sheyx churundar», «Haqqorat-ul-arz» va «Sure Esrofil» kabi ruznoma va oynomalar juda mashhur edi. Yozuvchi, shoir, olim va noshir Mirza Ali Akbarxon Dehxudo (1880— 1956 yy.) oʻzining felyetonnamo kichik hajviy asarlarini «Sure Esrofil» jurnalida «Charand-parand» rukni ostida muntazam ravishda chop etib borgan. Davrning dolzarb masalalarini yoritishda mavjud adabiy janrlar shakllaridan ustalik bilan foydalandi. Eron adabiyotshunosi Rizo Barohaniy tili bilan aytganda, «Dexxudo nasri jurnalistika bilan novellistika oʻrtasiga qurilgan oʻziga xos koʻprik boʻlib, Eron ijtimoiy

hajviyotining yorqin namunasidir». Darhaqiqat, Dexxudo ijodi fors adabiyoti tarixida yangi sahifadir. Chunki u qoʻl urgan mavzular kichik nasriy shakllarda birinchi marta yoritilayotgan edi. Uning uslubi sodda, tili omiyona soʻz va iboralarga boy. Eron inqilobi magʻlubiyatga uchraganidan soʻng mamlakatda taʼqib siyosati avj oldi. Oʻsha shiddatli yillarda baʼzi yozuvchilar «umidsizlik va tushkunlikka tushdilar», «joni shirinlar» sharoitga moslashdilar, ayrimlari esa diyorni tark etib, xorijga chiqib ketdilar va oʻz asarlarini chet ellarda nashr ettirdilar. Adabiy hayotda yuz bergan buxron birinchi jahon urushi davrida ham davom etdi. Oʻsha davr Eron adabiyoti uchun gʻoyaviy inqiroz, kelishuvchilik, tushkunlik kayfiyatlari xosdir. 20-yillar fors nasri yangi janrning paydo boʻlishi va mazmundagi sifat oʻzgarishi bilan eʼtibordir. Huddi oʻsha davrda baʼzi jihatlardan Gʻarbiy Yevropa risarlik romanlariga yaqin turuvchi tarixiy va ijtimoiy-maishiy mavzuda romanlar yozildi. 1922 yilda Mushfiq Kozimiyning «Qurqinchli Tehron» («Tehrone maxuf») romani «Eron yulduzi» («Setoraye Iron») gazetasida bosila boshladi. Bu asar xalq orasida juda tez tarqaldi, ammo xokim sinf didiga maʼqul boʻlmaganligi uchun uni man etishdi. Natijada romanning keyingi qismlari Berlinda chop etildi. M. Jamolzodaning 1922 yilda eʼlon qilingan «Bir bor ekan, bir yuq ekan...» («Yeki bud va yeki nabud») nomli kitobi fors nasrining yangi davridan dalolat berdi. Rizoshoh hokimiyat tepasiga kelganidan keyin (1925 y.) Eronning qora kunlari boshlandi. Adabiyot siyosiy hokimiyatga boʻysundirildi, adabiy faoliyat ustidan qattiq nazorat oʻrnatildi. Adabiyotda qadimgi Eron shohlari va «buyuk Eron» oʻtmishini ulugʻlovchi tarixiy asarlar paydo boʻldi. Sanʼatizoda Kermoniyning «Navdosh Moniy haqida qissa» («Dostone Moniy Navdosh»), «Jinnilar toʻdasi» (Majmuee divanegon), «Rustam XXII asrda» («Rustam dar qarne bistu duvvum») kabi romanlari shular jumlasidandir. Mirzo Haydarali Kamoliyning 30-yillarda yaratilgan «Lazika» tarixiy romani ham Rizoshoh amalga Oshira boshlagan millatchilik gʻoyalarini targʻib etdi. Garchi bu asarlarda tarixiy voqealar aks etsa-da, ularning mazmuni va gʻoyasi Rizo Pahlaviy sulolasi xukmronligini ulugʻlash va mustahkamlashga buysindirilgan edi. Shoh hokimiyatining qattiq nazorati va taʼqibiga qaramay, ijtimoiy tengsizlik, zulm va adolatsizlikka qarshi yozilgan badiiy asarlar ham paydo boʻldi. 1926 yilda Kermonshoxda Xudodning «Dehqonning qora kuni» («Ruze siyohe korgar») qissasi bosilib chiqdi. Asar badiiy jihatdan qiyomiga yetmagan boʻlsa ham, ammo oʻsha davr ruhini, dexqonning ayanchli holini toʻla aks ettira oldi. 30-yillarda Abbos Xaliliy «Inson», «Qasos» («Enteqom») va «Zulmat» («Ruzgore siyoh») kabi romanlarini yozdi. Bu asarlarda dolzarb muammolar

qalamga olingan. Biroq tasvirning xiraligi, voqealarning yuzakligi hamda qaxramonlar ruhiyatining mantiqan dalillanmaganligi asarning badiiy qiymatiga putur yetkazgan. Masalan, «Zulmat» asarida majburan foxishalik yuliga kirgan ayol taqdiri va uning bir umrga baxtsiz bo‘lib qolganligi aks ettiriladi, bu holning ijtimoiy ildizlari to‘laligicha ochilmaydi. Xotin-qizlar taqdiri va hayoti Eron adabiyotida azaliy mavzulardan hisoblanadi. Muhammad Hijoziy va Said Nafisiylar ham shu mavzuga qo‘l urganlar. Bizga M. Hijoziyning «Xumo», «Parichehr» va «Zebo» nomli uchta romani ma‘lum. Uchalasi ham asar qaxramonlari nomi bilan atalgan. Bundan tashqari, u turli mavzularda xikoyalar ham yozgan. Eronning mashhur adabiyotshunos olimi S.Nafisiy 1931 yilda «Farangis» (asar qahramoni) romanini yozdi. Asar mazmuni juda qiziq, hayotiy voqealarga boy. Ammo romanda Rizoshox sulolasining jonli panjalari o‘z muxrini qoldirgan: asar sabr qanoatga, sharoit bilan kelishishga gasiradi. Muhammad Mas‘ud Dexotiyning 1932-1934 yillarda «Tungi maishat» («Tafrihote shab»), «Ruzgor yuki» («Dar taloshe maosh») «Maxluqlar aslzodasi» («Ashrafe maxluqot») romanlaridan iborat trilogiyasi bosilib chiqdi. Yozuvchi o‘z asarida Eron ma’murlarining hayotini, ularning ayshu-ishrati, buzuqligini mufassal va mukammal tasvirlaydi. Dexotiy va A.Xaliliy asarlari adolat, demokratiya uchun kurash g‘oyalari ta‘sirida yaratilgan bo‘lsa-da, aslida xalq hayotini, uning orzu-intilishlarini to‘la va xaqqoniy aks ettirishidan yiroq edi. Bu davrda adabiyotga kirib kelgan M.Jamolzoda, S.Hidoyat, B.Alaviy, S.Nafisiy kabi yosh adiblar ijodi esa tom ma’noda xalqchil bo‘lib, ular ijtimoiy adolat, mustaqillik va ozodlikka bo‘lgan umid uchqunlari xalq dilida sunmaganligini ko‘rsata olganlar. 40-yillarda Eronning ijtimoiy-siyosiy hayotida keskin o‘zgarishlar yuz berdi.

TAHLIL

Mamlakatda demokratik kuchlar jonlanib, milliy ozodlik harakati keng quloq yozdi. Sabr kosasi to‘lgan xalq g‘azab otiga mindi. Zindonga tashlangan xur fikrli ziyolilar ozodlikka erishdi. 1941 yilning 15 sentyabrida Shox Rizo — o‘g‘li Muhammad Rizo Paxlaviy foydasiga taxtdan voz kechib, chet elga ketishga majbur bo‘ldi. Mamlakat ozgina bo‘lsa-da, erkin nafas ola boshladi. Adabiyotda ham umuminsoniy ahamiyatiga molik masalalar ko‘tarilib, yozuvchilar ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok eta boshladilar. M.Jamolzoda, S. Hidoyat, B.Alaviy, S.Nafisiy, E.Tabariy, M.Bexozin kabi tajribali adiblar o‘zlarining butun iste’dodlarini namoyon etdilar, fors nasrini yangi bosqichga olib chiqdilar. Rus va sovet adabiyotidan qilingan tarjimalar soni va sifati misli ko‘rilmagan darajada oshdi. Ayniqsa,

A.Chexov, L.Tolstoy, A. Pushkin, I.Turgenov, N.Gogol, F.Dostoyevskiy, M.Lermontov, Saltikov-Shedrin, I. Krilov, M.Gorkiy, I.Erenburg, B.Polevoy, K.Simonov, M.Sholoxov, A.Tolstoy, N.Ostrovskiy, A.Fadeyev, K. Fedin va boshqalarning asarlari bir necha marta bosilib, kitobxonlar e’tiborini qozondi. 1946 yilda madaniy aloqa bog‘lash maqsadida Eron jamiyati tomonidan tashkil etilgan Eron yozuvchilarining birinchi kongressi mamlakat adabiy hayotida katta va muhim voqea bo‘ldi. Eron yozuvchilarining birinchi kongressi adabiyotning xalqchilligi uchun kurash shiori ostida o‘tdi. Malikushshuaro Bahor kirish nutqida kongress qatnashchilariga murojaat qilib, shunday degan edi: «Adabiyot xalq va uning manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Adabiyot xalq dardini, orzu-havasini aks ettirib, uning tilida so‘zlagandagina bunga erishishi mumkin». Bu davrda zamonaviy voqelikni aks ettiruvchi ko‘pgina mazmunli hikoyalar, qissa va romanlar yaratildi. Taraqqiyparvar ijtimoiy-siyosiy, adabiy ro‘znoma va oynomalar izchil siyosiy pozisiyada turib, o‘z sahifalaridan xalqchil va ilg‘or adiblarga keng o‘rin berdi. Natijada yosh fors nasri teran tomirli she’riyat kabi mustahkam ildiz otishiga zamin yaratildi va u xaqli ravishda jahon adabiyotlari qatoridan o‘rin oldi. 50-yillarda fors adabiyotida tinchlik va milliy mustaqillik uchun kurash mavzusi asosiy o‘rinni egalladi. Shu mavzuda M.Jamolzoda, S.Hidoyat, B. Alaviy, E.Tabariy, M.Behozin kabi o‘rta avlodga mansub yozuvchilar bilan bir qatorda, Parviz, A.Sodiq, A.Umid Daryo, A.Haydariy singari yosh taraqqiyparvar adiblar ham ijod etdilar. Bu davrda fors adabiyotida asosan, xikoyanavislikda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishildi (*Шомиҳамедов III., 2003 :28*). Mavzuning rang-barangligi, tilning soddaligi, badiiy vositalarning mukammalligi va yangi qahramonlarning paydo bo‘lishi ana shu davr hikoyalari uchun xarakterlidir. Bu hikoyalarda Eron xalqi hayotining turli qirralari o‘ziga xos tarzda kashf etildi. Shu ma’noda Parvizning «Muqaddas birlik» («Payvande muqaddas»), A. Sodiqning «O‘rtoqlar» («Rufaqqo»), «Tong otmoqda» («Xurshid midamad»), Daryoning «Isyon» («Qiyom»), A.Haydariyning «Ipak qurti» («Kerme abrisho‘m») A.Umidning «Ufqdagi yorqin yo‘l» («Hatte sefide ufq») hikoya va qissalari e’tiborga loyiqdir. Said Nafisiy 1952-yilda yozilgan «Jannatning yarim yulida» («Nime roxi be bexesht») romanda xokimiyatga erishish va o‘z shaxsiy manfaati yulida hech narsadan tap tortmaydigan siyosiy olg‘irlar obrazini mohirona yaratib, o‘z yozuvchilik iste’dodini yana bir bor namoyish etdi (*Савд Хафзучи, 1323 h. : 21*). Yozuvchi Javod Fozil ijodi, asosan, eronlik ayollarning og‘ir qismati va huquqsizligi masalalariga bag‘ishlangan. Adib qissalarini dramatik voqealar asosiga quradi va

o'quvchini bir nafas bilan chiqishga majbur etadi. Uning: «Ishq va ko'z yoshi» («Eshq va ashk»), «Fohisha» («Fohisha»), «Yetim qiz» («Duxtare yatim») qissalarida mamlakat xotin-qizlarining fojiali taqdiri, og'ir hayoti aks etgan. J.Fozil qahramonlari mavjud tuzum va xurofot qurbonlaridir. Fors nasri tarixiga chuqur nazar solinsa, uning taraqqiyoti ko'p jihatdan mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq ekanligini sezish qiyin emas. Ya'ni, demokratik kuchlar oyoqda tursa, adabiyotda ham ko'tarinki ruh, jonlanish seziladi, agar reaksiya odimlar taraqqiyparvar kuchlarni bura boshlasa, adabiyotda ham tushkunlik, inqirozga yuz tutish hollari ko'zga tashlanadi. 1953-yilda AQSH hukumatiga tayangan harbiylar tomonidan mamlakatda davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Ilg'or yunalishdagi adabiy, ijtimoiy-siyosiy matbuot nashrlari yopildi. Xalq hayotini haqqoniy aks ettirgan badiiy adabiyot vakillari quvg'in etildi. Eron xalqi hayotiga AQSHning nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy ta'siri ham kuchaydi. Adabiyotda amerikacha hayot tarzi va madaniyatini targ'ib qilish mayllari namoyon bo'la boshladi. Bundan, hatto ilg'or kayfiyatda bo'lgan ba'zi yozuvchilar ham benasib qolmadilar. 60-yillarda fors adabiyotida hikoyachilik janri asosiy mavqeni egallab, mamlakat va xalq hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalarni badiiy tadqiq etishda davom etdi. Mavzu doirasining kengayganligi, aks ettirilayotgan voqealarning chuqur va har tomonlama dalillanishi, yangi obrazlar yaratilishi - bu davr hikoyalarining asosiy xususiyatlaridir. Shu bilan bir qatorda, katta janrda ham asarlar yaratildi. Biroq ular orasida haqiqiy insoniy fazilatlarini ulug'lovchi, mamlakatda ruy berayotgan jarayonlarni aniq aks ettiruvchi asarlar kam. Ali Muhammad Afroniyni 1961-yilda bosilgan «Ohu xonimning eri» romani bundan mustasnodir. Bu romanni «Kitob jamiyati» («Anjumane kitob») o'sha davrning eng sara asari deb baholadi. Bu asarda falsafiy, siyosiy, ahloqiy muammolar, shaxsning shakllanish jarayoni, turmush dramalari keng ijtimoiy-maishiy hayot fonida jonli aks ettirilgan. Shu vaqtga qadar adabiyotda Eron ayoli davr, tuzum va xurofot kurboni sifatida tasvirlangan bo'lsa, bu asar qahramoni yangi tipdagi ayol, erkin fikrlovchi, ozodlikka intiluvchi, faol inson sifatida namoyon bo'ladi. Eron tanqidchilari bir ovozdan bu asarni hozirgi zamon fors adabiyotidagi katta voqea, deb baholadilar. Bu davrga kelib, 50-yillardayoq dadil qadam tebratgan J.Ahmad, A.Mahmud, I.Guliston kabi nosirlarning ijodi xalq e'tiborini qozondi. Ularning safiga F.Soidiy, F. Tonekabuniy, X.Shoxoni, J.Mirsodiqiy, B.Sodiqiy kabi zabardast yosh yozuvchilar ham kelib ko'mildilar. Ularning ko'pgina asarlari bilan kitobxonlar tanish. O'z qalamiga, ovozig va uslubiga ega bu qalamkashlarni eron xalqi hayotining dolzarb masalalari,

murakkabliklari va qarama-qarshiliklarini to'laqonli badiiy tadqiq etishga intilish birlashtirib turadi. 60-yillarning boshlarida Eron ijtimoiy-istisodiy hayotida muhim siyosiy ahamiyatga molik o'zgarishlar yuz berdi, mamlakat neft tufayli oqib kelayotgan daromad hisobiga rivojlanayotgan kapitalistik mamlakatlar qatoridan joy oldi. Eronda sanoat tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi, pirovard natijada yangi ijtimoiy guruhlar va munosabatlar vujudga keldi. Mutlaq monarxiyaning poydevori yanada mustahkamlandi. «Oq inqilob» yoki «Shoh va xalq inqilobi» shiori ostida hokim sinflar manfaatini himoya qiluvchi yuzaki islohotlar o'tkazildi. Islohotning asl maqsadini birinchi galda ana shu zukko va ziyrak yozuvchilar ilg'ab oldilar, o'z asarlarida bu haqiqatni turli adabiy shakllar, ishoralar va ramzlar orqali aks ettirdilar. Chunki adabiyotda qattiq nazorat o'rnatilgan edi. Keyingi yigirma yil Jalol Ole Ahmad, F.Soidiy, F. Tonekabuniy, I.Guliston, J.Mirsodiqiy, X.Shohoni va S.Behrangiyar uchun nafaqat realistlik san'atga imon-e'tiqod sinovi, balki fuqarolik jur'ati sinovi ham bo'ldi. Chunki shohning shafqatsiz harbiy-siyosiy mashinasi mamlakat ma'naviy hayotini bir qolipga solish, adabiyotdagi har qanday hurfiylikka qarshi kurashga qaratilgan edi. «Bechoralarning og'ir ahvoli tug'risida, inson erkini bo'g'uvchi qonunsizlik va zurlik haqida yozishga uringan adiblarni xibs etar, turmaga tiqar va g'ayrinsoniy azob-uqubatlarga duchor etar edilar», - deb eslaydi 60-70-yillar haqida mashhur Eron yozuvchisi G'ulom Husayn Soidiy. Darhaqiqat, 60-70-yillar Eron taraqqiyparvar adabiyoti uchun nihoyatda og'ir va mashaqqatli davrlar bo'ldi, ammo shunga qaramay, yozuvchilar o'z imon-e'tiqodlariga hiyonat qilmadilar. Zamonaviy nosirlar insonparvarlik g'oyalariga boy fors adabiyoti an'analari sodiq qolib, doim adolat tomonida turdilar. Fulom Soidiy o'z taqdir qismatiga tashlab qo'yilgan insonlar hayotini, Jalol Ole Ahmad shahar hayotiga G'arbning salbiy ta'sirini, S.Behrangiy tuzumining nomukammalligini, X.Shohoni davlat apparatining kaltabinligini turli adabiy usullar vositasida ishonarli aks ettirdilar. Ular inson ichki dunyosini, mafkura o'zgarishlarida va ichki muhitning ahamiyatini ko'rsatishda, tipik voqealarni badiiy ifoda etishda o'zidan oldingi avloddan ham ancha olg'a ketdilar va hikoyachilikning rivojlanishiga munosib xissa qo'shdilar.

XULOSA

1979-yilning fevral oyida qadimiy Eron sarzaminida katta siyosiy voqea - inqilob ro'y berdi. Oyatullo Humayniy boshchiligidagi ruhoniylar tomonidan amalga oshirilgan bu inqilob ming yillar

mobaynida davom etib kelgan shohlik tuzumining ildiziga bolta urdi. Biroq ko'p o'tmay, hayotning barcha jabhalarida diniy mutaassiblik hukmronlik qila boshladi. Reaksion kuchlar bundam foydalanib qoldilar. Natijada demokratik kayfiyatdagi kishilar, erkin fikrli ziyolilar ta'qib etildi, surgun yoki qatl etildi. Ilg'or g'oyalarni ilgari surgan adabiy-badiiy ro'znoma va jurnallar yopildi.

Bugungi kunda ko'pgina Eron yozuvchilari erkin ijod qilish imkoniyatidan mahrum bo'lganliklari uchun AQSH, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda yashamoqdalar. Ularning asarlari Eron xalqini o'z vatani ozodligi, mustaqilligi va baxt saodati yulida doimo uyg'oq turishga chaqiradi. Ye.E.Bertels aytganidek, jahon adabiyoti xazinasidan haqli ravishda munosib o'rin olgan Eron adabiyoti hali o'zining oxirgi so'zini aytganicha yuq. Uylaymizki, an'ana va tajribaga boy fors adabiyoti insoniyatning baxt-saodati va tinchligi uchun bundan keyin ham kurashaveradi, hamda inson badiiy tafakkurini yangi shakl va mazmuni bilan boyitadi.

ADABIYOTLAR:

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. I жилд. –Т.: Фан, 1978. –18 б.
2. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. II жилд. – Т.: Фан, 1979. – 449 б.
3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. –Т.: Фан, 1992. – 247 б.
4. Бертельс Е.Э. (1988) История литературы и культуры Ирана. –М.: Наука, 1988. –559 б.
5. Имомназаров.М. (2013) X-XV асрлар. Форс мумтоз шеърят (Даврлаштириш муаммолари. Адабиётнинг мустақил маънавий моҳиятини шаклланиши). – Т., 2013. – Б. 310.
6. Иззат Султон. (1989) Адабиёт назарияси . –Т.: Ўқитувчи, 1989. -378 б.
7. Муҳаммадризо Рўзбех. Ҳозирги замон Эрон адабиёти. –Т., 2012.
8. Муҳаммадризо Рўзбех. Ҳозирги замон Эрон шеърят: “янги шеър”нинг тарихий таҳлили. Сино // 2009 йил. –Б. 34-35-36.
9. Маллаев Н. (1976) Ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. 1-китоб. –Т.: Ўқитувчи, 1976. – 662 б.
10. Nizamova F. (2019) The history of studying Khusrav Dekhlavi's work // The Light of Islam. – 2019. – Т., 2019. – №. 2. – С. 95-99.
11. Абу Али Ҳасан ибн Али Тусий Низомулмулк. Сиёсатнома. 1091 й.
12. Османов Н. (1974) Стиль персидско-таджикской поэзии IX–X вв. –М., 1974.
13. Османов Н. (1970). Тип, метод и стил персидской поэзии X в. // Ж. Народы Азии и Африки. –1970. – № 1. – 156 б.
14. Очилов Э. (2016) Рубой таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: фил. фан. номзоди дисс. Автореф. – Т., 1994. – 23 б.
15. Parvin E'tisomi. (2017) She'rlar. Jahon adabiyoti va madaniyati j-li. Mirza Kenjabek tarjimalari. – Т., 2017.
16. Парвин ҳақидаги мақолалар ва шеърӣ хотиралар. (1944) – Техрон, 1944. –Б. 6–7.
17. Пригарина Н.И. (1983) Образное содержание байта в поэзии на персидском языке / Восточная поэтика Специфика художественного образа. –М., 1983. –Б. 89–108.
18. Rubinchik Yu.A. (1963) tahriri ostida Persidsko-russkiy slovar. 2 tomlik -M., 1963.
19. Современная иранская проза. Антология иранского рассказа. Том I, II. СПб., 2010.
20. Сулаймонова Ф. (1997) Шарқ ва Ғарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – 465 б.
21. Султон Иззат. (1986) Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
22. Саид Нафисий (1323 х.). Парвин Ёътисомий. Пайёме нон ж-ли. –№2. 1323 х.й. –Б. 99.
23. Turdiyeva O. (2015) Zamonaviy Eron hikoyanavisligi: monografiya. –Т., 2015.
24. Turdiyeva O. (2020) Eron folklori: o'quv qo'llanma. –Т., 2020.
25. Шомухамедов Ш. (1963) Форс-тожик адабиёти классиклари. –Т.: Ўздавбадабнашр, 1963. –99 б.
26. Шомухамедов Ш. (1968) Форс-тожик адабиёти классиклари ижодида гуманизм. –Т.: Фан, 1968. – 432 б.
27. Шомухамедов Ш. (1981) Хазиналар жилоси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.
28. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. –Т.: ТошДШИ, 2000. –140 б.
29. Шомухамедов Ш. (2003) Форсий шеърятнинг асосий шакллари. –Т.: ТошДШИ, 2003. –102 б.
30. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. –Т.: ТошДШИ, 2000. –140 б.
31. Куронов Д. (2007) Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Фан, 2007. – 226 б.
32. Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. (1970) Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1970. –299 б.
33. Quronov D. (2010) Adabiyotshunoslik lug'ati. – Т.: Akademnashr, 2010. 173-b.
34. Эрон шоирлари. -Тошкент, 1958. –Б. 60-61.
35. Ян Рипка. (1970) История персидской и таджикской литературы. –М., 1970.
36. Шамсулмулк Жавоҳир Калом. Ислом ва Эроннинг машхур аёллари. 1 том. –Б. 7.
37. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. – Т.: ТДШИ, 2000. – 140 б.

XORIJY ADABIYOT:

1. دانشنامه ادب فارسی. جلد اول. تهران ۱۳۸۱. ص ۱۴۰۱
2. فرهنگنامه ادبی فارسی. تهران ۱۳۸۱. ص ۵۳۵۱
3. سیروس شمیسا. سبکشناسی شعر. تهران ۱۳۸۱. ص ۹۳۲-۸۳۲

۴. رشید یاسمی. ادبیات معاصر. تهران
۵. سعید نفیسی. تاریخ مختصر ادبیات ایران. سالنامه

REFERENCES:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. –T.: Fan, 1978. –18 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. II jild. – T.: Fan, 1979. – 449 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Lirik. –T.: Fan, 1992. – 247 b.
4. Бертельс Е.Э. (1988) История литературы и культуры Ирана. –М.: Наука, 1988. –559 б.
5. Imomnazarov.M. (2013) X-XV asrlar. Fors mumtoz she'riyati (Davrlashtirish muammolari. Adabiyotning mustaqil ma'naviy mohiyatining shakllanishi). – T., 2013. – B. 310.
6. Izzat Sulton. (1989) Adabiyot nazariyasi . –T.: O'qituvchi, 1989. -378 b.
7. Muhammadrizo Ruzbeh. Hozirgi zamon Eron adabiyoti. –T., 2012.
8. Muhammadrizo Ro'zbeh. Hozirgi zamon Eron she'riyati: “yangi she'r”ning tarixiy tahlili. Sino // 2009 yil. –B. 34-35-36.
9. Mallayev N. (1976) O'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. –T.: O'qituvchi, 1976. – 662 b.
10. Nizamova F. (2019) The history of studying Khusrav Dekhlavi's work // The Light of Islam. – 2019. – T., 2019. – №. 2. – C. 95-99.
11. Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmuluk. Siyosatnoma. 1091 y.
12. Османов Н. (1970). Тип, метод и стил персидской поэзии X в. // Ж. Народы Азии и Африки. –1970. – № 1. – 156 б.
13. Osmanov N. (1970). Tip, metod i stil persidskoy poezii X v. // J. Narody Azii i Afriki. –1970. – № 1. – 156 b.
14. Ochilov E. (2016) Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi: fil. fan. nomzodi diss. Avtoref. – T., 1994. – 23 b.
15. Parvin E'tisomi. (2017) She'rlar. Jahon adabiyoti va madaniyati j-li. Mirza Kenjabek tarjimalari. – T., 2017.
16. Parvin haqidagi maqolalar va she'riy xotiralar. (1944) – Tehron, 1944. –B. 6–7.
17. Prigarina N.I. (1983) Obraznoye soderjaniye bayta v poezii na persidskom yazyke / Vostochnaya poetika Spesifika xudojestvennogo obraza. –M., 1983. –B. 89–108.
18. Rubinchik Yu.A. (1963) tahriri ostida Persidsko-russkiy slovar. 2 tomlik -M., 1963.
19. Sovremennaya iranskaya proza. Antologiya iranskogo rasskaza. Tom I, II. SPb., 2010.
20. Sulaymonova F. (1997) Sharq va G'arb. –T.: O'zbekiston, 1997. – 465 b.
21. Sulton Izzat. (1986) Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 1986. – 408 b.
22. Said Nafisiy (1323 h.). Parvin E'tisomiy. Payyome non j-li. –№2. 1323 h.y. -B. 99.

23. Turdiyeva O. (2015) Zamonaviy Eron hikoyanavisligi: monografiya. –T., 2015.
24. Turdiyeva O. (2020) Eron folklori: o'quv qo'llanma. –T., 2020.
25. Shomuhamedov Sh. (1963) Fors-tojik adabiyoti klassiklari. –T.: O'zdvabadadabnashr, 1963. –99 b.
26. Shomuhamedov Sh. (1968) Fors-tojik adabiyoti klassiklari ijodida gumanizm. –T.: Fan, 1968. – 432 b.
27. Shomuhamedov Sh. (1981) Xazinalar jilosi. – T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 400 b.
28. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. –T.: ToshDSHI, 2000. –140 b.
29. Shomuhamedov Sh. (2003) Forsiy she'riyatning asosiy shakllari. –T.: ToshDSHI, 2003. -102 b.
30. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. –T.: ToshDSHI, 2000. –140 b.
31. Quronov D. (2007) Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007. – 226 b.
32. Homidiy X., Abdullayeva Sh., Ibroximova S. (1970) Adabiyotshunoslik terminlari lugati. – T.: O'qituvchi, 1970. –299 b.
33. Quronov D. (2010) Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademya. 2010. 173 b.
34. Eron shoirlari. –T., 1958. -B. 60-61.
35. Yan Ripka. (1970) Istoriya persidskoy i tadjikskoy literatury. –M., 1970.
36. Shamsulmuluk Javohir Kalom. Islom va Eronning mashhur ayollari. I tom. –B. 7.
37. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. – T.: TDSHI, 2000. – 140 b.

FOREIGN LITERATURE:

1. Doneshnome-ye adab-e forsi. Jeld-e avval. Tehron, 1380. C. 1041.
2. Farhangnome-ye adab-e forsi. Tehron, 1381. C.1535.
3. Rashid Yosemi. Adabiyot-e maoser. Tehron.
4. Said Nafisi. Norix-e moxtasari-ye adabiyote Iron. Solnome.